

AYOLLAR – ILM-FAN FIDOIYLARI

Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna

Namangan davlat universiteti dotsenti (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11363270>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash, ularning jamiyatdagi va oiladagi nufuzlarini ko'tarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, ilm-fan rivojida ayollarning o'rnini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, gender tenglik, teng huquqlilik, jamiyat hayoti, davlat himoyasi, ta'lim, fan, madaniyat.

Абстрактный. В данной статье защита прав и законных интересов женщин, повышение их экономической, социальной и политической активности, сохранение их здоровья, обеспечение профессиональной подготовки и трудоустройства, широкое вовлечение в предпринимательство, социальная поддержка нуждающихся женщин, обеспечение гендерного равенства, повышение их влияние в обществе и семье, особенно роль женщины в развитии науки.

Ключевые слова: Женщины и девочки, гендерное равенство, равноправие, общественная жизнь, государственная защита, образование, наука, культура.

Abstract. In this article, protection of the rights and legal interests of women, increasing their economic, social and political activity, maintaining their health, providing vocational training and employment, wide involvement in entrepreneurship, social support of needy women support, ensuring gender equality, raising their influence in society and family, especially the role of women in the development of science.

Key words: Women and girls, gender equality, equal rights, community life, state protection, education, science, culture.

Ma'lumki, sharqda qadimdan ayol muhtarama ona, singil, sadoqatli yor sifatida hamisha e'zozlanib kelingan. Shu bois, halqimiz azal-azaldan buyuk zot onalarni ulug'lab, eng tabarruk tushuncha Vatan so'ziga "Ona vatan" iborasini qo'llab ham ishlatadi.

Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, Mustaqil O'zbekistonimizda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari va sa'y-harakatlari bilan keyingi yetti yil ichida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash, ularning jamiyatdagi va oiladagi nufuzlarini ko'tarish borasida tizimli ravishda islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari qatorida O'zbekiston Respublikasida ham ayollar va bolalarga bo'lgan e'tibor – ularning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi o'rnini mustahkamlashning davlat siyosati darajasigacha ko'tarilayotganida namoyon bo'lmoqda. Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim rol kasb etadigan tarbiya masalasi oiladan shakllanadi. Oila esa o'z navbatida, undagi er-xotin, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarning maskanidir. Shunday ekan bir-biriga bog'liq bo'lgan munosabatlar zahirida jamiyatni tashkil qiluvchi SHAXS shakllanadi. Tarbiya va ayolning oiladagi o'rnini

masalasida ko'plab uzundan uzoq isbotini allaqachon amalda ko'rsatayotgan misollarni keltirish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasining gender tengligi bo'yicha olib borayotgan siyosati, davlat boshqaruvida xotin-qizlarga ko'plab imkoniyat eshiklarini ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Respublikamiz Kontitutsiyasi 46-moddasi bilan xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqliliklari belgilab qo'yilgan bo'lib, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi faoliyatlari qonun bilan himoyalangan.

Mehnat qonunchiligida ayollarga alohida huquq va erkinliklar berilgan. Xususan, Mehnat kodeksi 120-moddasiga ko'ra homiladorlik yoki farzandlar borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilmaslik, ishga qabul ishini qonunga xilof ravishda rad etish sanaladi. Mehnat kodeksining 129-moddasida esa homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati belgilanmaydi deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari mehnat shartnomasini bekor qilishda ham homilador ayollar va uch yoshgacha bolasi bo'lgan xodimlar uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi. Ya'ni Respublikamizda ayollarning har qanday sohada faol ishtiroki kafolatgan hamda ularning huquq va erkinliklari davlat himoyasidir.

Ayollar huquqini himoyalash va ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash uchun keyingi yillarda huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Xususan, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu Qonunda ko'zda tutilganidek Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 8-mart bayrami munosabati bilan mamlakat xotin-qizlariga tabrigida shunday deydi: "Biz erkin va farovon, demokratik, dunyoga ochiq mamlakatni barpo etishda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz ham beqiyos hissa qo'shayotganini albatta yuksak qadrlaymiz".

Davlatimiz rahbari o'z fikrlarini davom ettirib, hozirgi vaqtda yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan hurmatli ayollarimizning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, ta'lim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda.

Agar 2017-yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan – 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan – 37 foizga yetdi.

Bilimli, tashabbuskor va faol ayollarimizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolari hamda mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizi xotin-qizlar ekanini ta'kidlash lozim.

Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliy mukofot – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. Xotin-qizlarimiz orasida 5 nafar akademik, oliy ta'lim muassasalarining o'zida 700 nafardan ziyod fan doktori, qariyb 3 ming nafar fan nomzodi bo'lgan ko'plab ayollarimiz bor.

Bunday jonkuyar opa-singillarimizni Yangi O'zbekistonning oltin fondi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi – deb mamnuniyat bilan qayd qildilar.

Ayollarga bo'lgan munosabat, ularni qadrlash masalasi bizda bugun paydo bo'lgan emas. Bu borada Sharq o'z tajribasi va muhim manbalariga ega.

Xususan, Qur'oni Karimda "Erkaklar xotunlar ustida rahbardurlar. Bunga sabab Alloh ularning birovlaridan ortiq qilgani va erkaklar o'z mol-mulkalaridan sarf-harajat qilganlaridir. Bas, ibodat-itoatla va erlari yo'qligida Allohning hifzu himoyati bilan saqllovchi xotunlar yaxshi xotunlardir..." ("Niso" surasi, 34-oyat) deb ko'rsatilgan[1]. Shunday ekan ayol oilaning quvonchi ta'minlovchi, muammolarga o'z vaqtida yechim topuvchi, o'zaro g'amxo'rlik, mehribonlik, ahillik kabi qator hususiyatlarni o'zida jamlovchi zot.

Bundan bir necha ming yillar avval yashab, ijod etgan allommamiz Abu Ali ibn Sino "Oila xo'jaligi" deb nomlangan kitobining "Afsofiy bextarin zanxo"(Ayollarning yaxshi fazilatlarini haqida) bo'limida ularning quyidagi fazilatlarini ta'kidlanadi[2] . : "Ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib ko'p gapirmasligi lozim, u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak, injiq bo'lmasligi, o'z obro'si va iffatini to'kmasligi lozim". Ibn Sinoning bu fikrlari asosan ayol shaxsiga qaratiladi, lekin bu fikrlar asosida ayollarning psixologik jihatdan oila muhitini ifodalaydigan kishilar sifatida qarash hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir.

Ma'naviy takomilning asl manbai, ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdir. A.Avloniy bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo'yadi: "...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga "birinchi uy tarbiyasi – bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir" deb javob beradi[3]. Zero, jamiyat taraqqiyoti, inson erkinligiga eng avvalo yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan farzandlar kamoli orqali erishiladi.

M.Behbudiy ayollar savodi masalasini eng dolzarb muammolardan bo'lmog'i lozimligini ta'kidlar ekan, hadisi sharifdagi "har bir muslim va muslima ilm olmog'i farz"ligini aytib o'tadi. Bu davrda xotin-qizlarni maktab-maorif ishlariga jalb etish, madaniy-ijtimoiy faoliyatga aralashtirish masalasi shunday turli tuman bahs munozaralar bilan davom etdi. Bular orasida jadid namoyondalarining fikrlari aniq, amaliy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi[4].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rnini, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rnini va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Jamiyatda ayollar o'rnini mustahkamlash shu jamiyat a'zolariga bevosta bog'liqdir. Ayollarni siyosatga jalb etish, ta'lim olishini yanada mustahkamlash, haq-huqularini to'laqonli taminlash, bilmli va ilimli bo'lish uchun sharoitlar yaratish kabilar kiradi. Yildan yilga brogan sari ayollar har sohada faol

ishtiroki ko'zni quvnatadi. Ayol ojiza emas, u faqat uyda o'tirish farzand tarbiyalash uchun yaratilmagan. Ayol kishi olima va foziladir. Zamondosh ayollarimiz jamiyatda teng huquqli, yaratuvchi va bunyodkorlar safida faol ishtirokchigina emas, balki o'zlarining bilimi, kasbiy malakasi bilan ko'pgina jabhalarda yetakchi mavqelarni egallab turibdi. Bugun biror soha yo'qki, unda ayollar ishlamayotgan bo'lsa. Ular shifokor-u o., qituvchi, fermeru tadbirkor, san'atkor-u muhandis, olim-u arbob. Ayniqsa, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport kabi sohalarining ravnaqini xotin-qizlarsiz aslo tasavvur etish mumkin emas.

Darhaqiqat, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Yanada mufassalroq tasavvurga ega bo'lish uchun xotin-qizlarning hayotning barcha sohalarida qatori ilm-fandagi faol ishtiroklarini oliy ta'lim tizimi, aniqrog'i Namangan davlat universiteti misolida ham ko'rish mumkin. Ochig'ini aytganda, bundan besh-olti yil avval ham oliygohimiz ilmiy salohiyatida ayol olimlarning salmog'i ancha past edi. Keyingi yillar ichida bu holat mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun universitetimizda ilmiy-pedagogik faoliyat olib borayotgan ayollar sezilarli darajada ko'paydi. Keyingi uch yilning o'zida yetti nafar ayollar fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldilar. Biz bugun mamnuniyat bilan ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, fan doktori degan sharaflari unvonga sazovor bo'lgan Hurniso Usmonova, O'g'iloy Asqarova, Shahnoza Xo'jamberdiyeva, Hilola Najmiddinova, Rimma Zameleva, Mahbuba Sobirova, Zamira Isaqova, Farida Karimova kabi olima ayollarimizning nomlarini faxru-iftixor bilan tilga olmoqchimiz. Yana bir quvonarli jihati shundaki, ularning ko'plari universitetimizda tashkil etilgan ilmiy kengashda himoya qildilar. Bundan o'n-yigirma yil oldin ham buni tasavvur qilib bo'larmidi? Albatta, yo'q. Chunki, bo'lg'usi olimlarimiz turli xududlarga borib, qancha ovorai-sarson bo'lib ortiqcha vaqt ketkazib, himoya qilishlariga to'g'ri kelardi, bugun esa davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari va g'amxo'rliklari tufayli mamlakatimizdagi har bir oliygohda, shu jumladan, bizning Namangan davlat universitetimizda ham ilmiy kengashlar tuzilgan va ular samarali ish olib bormoqda.

Shu o'rinda yana bir faktga murojaat qilish o'rinlidir. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida Namangan davlat pedagogika institutida atigi bir nafar ayol fan doktori, professor bo'lgan. U ham bo'lsa filologiya fanlari doktori, professor rahmatli Tursunoy Hamidova edilar. O'shanda opa haqiqatan ham nafaqat institutimiz, balki viloyatimiz, respublikamiz ilm ahlining faxri edilar, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Mana bugun ularning izdoshlari, safdoshlari qanchalik kengayganligini yuqoridagi misollar ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Yoki universitetning ayollar ko'p ishlaydigan pedagogika va boshlang'ich ta'lim fakultetlarida yaqin-yaqingacha ham 1-2 nafargina ilmiy darajasi bor ayollar faoliyat olib borgan bo'lsa, bugun mazkur fakultetlar pedagoglarining qirq foizga yaqinini olima ayollar tashkil etadi. Ayni kunlarda yana yigirma nafardan ortiq ayollar tadqiqot ishlarini yakunlab, himoyaga shay bo'lib turibdilar. Bunday intilish va harakatni boshqa oliy o'quv yurtlari misolida ham ko'rish mumkin.

XULOSALAR

Demoqchimizki, keyingi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-ma'rifat bobida ham xotin-qizlarimizning tutgan o'rnini, salmog'i yildan yilga oshib borayotganligi quvonarli holdir.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, yigirmanchi asrning boshlarida yashab ijod qilgan jadid bobolarimiz ham Xotin-qizlarimizning ilmli-ma'rifatli bo'lishini orzu qilgan edilar. Bugun jadid boblarimizning bu orzulari ro'yobga chiqmoqda. Xotin-qizlarimiz siyosiy hayotda, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohaning barcha yo'nalishlarida bo'lgani singari maorifda, shu jumladan, ilmiy-pedagogik faoliyatda ham Yangi O'zbekiston ravnaqi yo'lida hormay-tolmay ijod qilib kelmoqdalar.

Адабиётлар руйхати

1. Қуръони Карим. Маъноларнинг таржима ва тафсири. Абдулазиз Мансур таржималари. -Тошкент: 2006
2. Нуритдинов М.Н. Из истории общественно-философской мысли в XVI-XVII веках. -Т.: Ибн Сино, 1996. - Б. 216;
3. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. -160 б.
4. Махмудхужа Бехбудий. Танлаган асарлар. — Тошкент, 1999 – Б. 7
5. Oila psixologiyasi. Toshkent. Sharq nashriyoti. - 2007
6. Mavlonova R. Pedagogika. Toshkent. O'qituvchi. – 2007